

Toshkent - Tokio - Toshkent yoʻnalishi boʻyicha aviaqatnovlar tiklanmoqda

2022 13 Iyul

Ikki yildan soʻng Uzbekistan Airways Toshkent - Tokio - Toshkent xalqaro yoʻnalishidagi muntazam aviaqatnovlarni tiklamoqda. 2022-yil 4-avgustdan boshlab parvozlar payshanba kunlari amalga oshiriladi.

Toshkentdan uchish: 22:05 (Toshkent vaqti bilan)

Tokioga yetib borish: Tokio vaqti bilan juma kuni soat 09:40

Tokiodan uchish: 11:00 (Tokio vaqti bilan)

Toshkentga yetib kelish: 16:10 (Toshkent vaqti bilan)

Aviachiptalarni Uzbekistan Airways Sales filialida, aviakompaniya agentlaridan yoki rasmiy www.uzairways.com saytida 3% chegirma bilan xarid qiling.